

## MUSIQA FOLKLORINI BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA O'RGATISHNING SHAKLLARI

*Hamidova Hafiza Nabiyevna*

*Musiqa ta'lifi II bosqich magistri*

**Annotasiya.** O'zbek an'analariga xos bo'lgan milliy urf-odatlarimiz, qolaversa san'atimizning eng go'zal jihatlari bilan o'quvchi yoshlarimizni milliy ruhda tarbiyalash bizning eng asosiy vazifalarimizdan biri bo'lib qolaveradi. Bunda milliy an'analarimiz, kuy qo'shiqlarimiz, shu o'rinda folklor qo'shiqlarimizning ham o'rni betakror. O'quvchilarga musiqa folklorini o'rgatishning o'ziga xos o'rni mavjud bo'lib, ularni ma'lum usullar yordamida o'rgatish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunday ekan boy merosimizni kelajak avlodga yetkazib berishga muhim vazigalarimizni belgilab olishimiz kerak.

**Tayanch so'zlar:** milliy an'analar, folklor qo'shiqlar.

Folklor qo'shiqlari vositasida o'quvchilarni estetik tarbiyalash ham mazmun, ham shakl jihatidan xilma-xildir. Bu jarayonda qo'shiq bilan birga cholg'uchilar ansambl, raqqosalar ham ishtirok etadi. Shuning uchun ham bu jarayon badiiy rahbardan mas'uliyat bilan birga professional mahorat, qunt va fidoiylikni talab etadi. Estetik tarbiya mazmunini shakllantirishda, birinchi navbatda, o'quvchilarda folklor qo'shiqlarini ansambl jo'rligida ijro etish, ko'pchilik bo'lib kuylash malakalarini hosil qilish lozim. Bu estetik tarbiya jarayonining umumiy muvaffaqiyatiga salbiy ta'sir etadi, mashg'ulotlarning qiziqarli bo'lishini cheklab qo'yadi. Bu o'rinda respublikamizda yashovchi turli millat xalqlarining milliy qo'shiq namunalaridan repertuarga kiritish, darsda kichik raqs dastasi bo'lishligiga erishish yaxshi samara beradi. Chunki ko'plab mumtoz qo'shiqlar, lapar va yallalar o'z tabiatiga ko'ra raqs jo'rligini talab qiladi. Ular o'zaro uyg'unlashganda ta'sir qudrati oshib, ijrochilar ham, tinglovchi va tomoshabinning ham ongiga zavqli huzur baxsh etadi. Tabiiyki, yoshlarning zehni o'tkir, xotirasi kuchli, o'zлari juda qiziquvchan bo'ladi. Shu bilan birga, ularda taqlidchilik ham kuchli bo'ladi. O'z imkoniyatlarini hisobga olmasdan har qanday qo'shiqlarni kuylashga, o'z ovozlarini majburan mashhur xonandalar ovoziga o'xshatib kuylashga harakat qiladilar. Bu o'rinda ham rahbar juda ehtiyojkorlik bilan ish tutishi, tushuntirish ishlarini olib borishi lozim bo'ladi. Rahbar havaskorlarga qo'shiq o'rgatayotganda ishni dastlab yengilroq, axloqiy-estetik jihatdan insonga tez ta'sir qila oladigan qo'shiqlardan boshlagani ma'qul. Shuningdek, rahbarning kuyni o'zi chalib, qo'shiqni me'yoriga yetkazib kuylab berishi yoki texnika vositalari orqali yozuvlarini eshittirishi havaskorlarning qiziqishini yanada oshiradi, tabiiylikka tomon ijobiy qadam qo'yiladi, taqlidchilikka intilish susayadi. Bu omil

yuqorida zikr etib o'tgan fikrlarning muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi. YA'ni o'quvchilarni folklor qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalash jarayonining mazmuni ularning individual ovoz imkoniyatlariga asoslanadi.

Repertuar tanlanayotganda respublikamizdagi mavjud taniqli ansambllar repertuaridan, mashhur xalq hofizlari, xonandalari bisotidagi har jihatdan mukammal asarlariga murojaat qilish o'rinni bo'ladi. Shuningdek, 9 tomlik «O'zbek xalq muzikasi», zamonaviy bastakorlarning xalqona ruhda yaratgan va ijro qilib kelinayotgan qo'shiqlaridan, «Shashmaqom» tarkibidagi ayrim namunalardan tanlab repertuarga kiritish maqsadga muvofiqdir. Repertuar tanlashda rahbar o'z ishining mazmunli va ta'sirchan chiqishi uchun radio va televide niye orqali berilayotgan, konsertlarda ijro etilayotgan qo'shiqlarga ham alohida e'tibor berib, ulardan o'z ishida unumli foydalanishi talab etiladi.

Havaskorlar bilan ishlash juda murakkab va ko'p bosqichli ishdir. Shu o'rinda ish olib borishning quyidagi tashkiliy-pedagogik jihatlari diqqat markazida bo'lishi maqsadga muvofiq:

- darsga qatnashish istagini bildirgan yoshlarni har tomonlama tekshirib ko'rish kerak. Bunda ovozining yoqimliligi, ovoz diapozoni, kuchi, nutqining ravonligi, so'zlarni aniq talaffuz qilish, eslash qobiliyati, ya'ni musiqiy xotirasi, hattoki tashqi qiyofasi va o'zini tutish holatlariga e'tibor berish;

- har bir havaskorning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish. Masalan, ba'zilarda yaxshi ovoz bor bo'ladi-yu, lekin usulga tushmaslik, ritmni his etmaslik, kuy bilan jo'r bo'laolmaslik kabi kamchiliklar bo'ladi. Bunday holatlarda shoshilmasdan, uzoq vaqt ni ko'zlab muayyan reja asosida ish olib borish;

- ba'zi havaskorlarda hayajonlanish kuchli bo'ladi. Ularda yaxshi ovoz, ijrochilik qobiliyati bo'lsa-da, uni ko'pchilik oldida namoyish qila olmaydi, ovozi qaltiraydi, so'zlarni esdan chiqaradi, musiqadan yoki usuldan chiqib ketadi. Bunday holatlarda sahnada ishlash mas'uliyati va ma'naviyati bo'yicha tashkiliy-tarbiyaviy ishlar olib borishga mashg'ulotlar mazmunida munosib o'rin ajratish;

- xalqimizning eng yaxshi qo'shiqlarini, ularni mashhur xonandalar ijrosidagi namunalari bilan texnik vositalar yordamida eshittirilib borilishi xavaskorlarning ijrochilik malakalari o'sishiga ijobiyligi ta'sir etadi;

- taniqli xonandalar, xalq hofizlari bilan uchrashuvlar o'tkazib turish, ular bilan suhbatlar uyuştirish, so'ngra qo'shiq tinglash kabi tadbirdalar juda samarali ish shakllaridan hisoblanadi. Bunday tadbirdarda yoshlarning iste'dodi, shubhasiz, rivojlanib boradi.

Estetik tarbiyaning ta'sirchan vositalaridan biri ommaviylik, ya'ni havaskorlik darslari va ular bilan birligida uyuştiriladigan estetik tadbirdarga o'quvchilar ommasini iloji boricha ko'proq qamrab olishdir. Bu esa o'quvchilarda g'oyaviy-estetik, ilmiy-nazariy bilimlarni mustahkamlab borishda samarali vositadir. Muhimi,

ularni amaliyot bilan bog'lash, onglilik bilan emotsionallik doimo bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lishini, estetik tarbiya va estetik faoliyat juda ko'p ko'rinishlarga ega bo'lishini ta'minlash talab etiladi.

O'quvchilarni folklor qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalashda avtoritar san'at va uning namunalaridan foydalanish ham tarbiya jarayoni mazmunida turli-tuman shakllarda o'z aksini topmog'i lozim. Zero, aynan yuksak saviyada, professional darajada haqiqiy usta san'atkor tomonidan ijro etilgan asar, bizning misolimizda xalq qo'shig'i ta'sirchan vosita hisoblanadi.

Folklor qo'shiqlari vositasida o'quvchilarni estetik tarbiyalashda faqat san'at tadbirlari bilan cheklanib qolmaslik lozim. Shu bois biz o'z tadbirlarimizga Toshkentdan va boshqa joylardan taniqli san'atkorlar, yozuvchilar, olimlar, bastakorlar, xonandalar, taniqli musiqa mutaxassislarni taklif qilib, ular bilan suhbatlar, uchrashuv kechalari o'tkazdik. Yozuvchilarning hozirgi adabiy jarayonlar, ijodiy o'ylar va ijodlari haqidagi, keyingi paytlarda yaratgan asarlari to'g'risidagi hikoyalari, talablar bilan savol-javoblari, bastakorlarning qo'shiq, kuy yaratish borasidagi suhbatlari, xonandalarning o'z repertuarlарidagi eng yaxshi qo'shiqlarni ijro etishlari estetik tarbiyaga qaratilgan tadbirlarimizning mazmundorligini oshirishda katta ahamiyat kasb etdi. Bularning barchasi yig'ilib, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash ishiga samarali ta'sir qildi. Mazkur tadbirlar shunchaki bir tadbir doirasidan chiqib, o'quvchilar bilan uchrashuv mehmonlarning jonli muloqotiga aylanib ketdi. Qizg'in muloqot davomida o'quvchilar san'at va adabiyot ijodkorlari bilan erkin muloqotda bo'lib, o'zlarini qiziqtirgan savollariga javob oldilar, bu esa ularning ongiga, hissiyotiga, dunyoqarashlariga ta'sir qilib, ma'naviy olamlarini yanada boyitdi.

Estetik tarbiya mazmunini shakllantirishda muntazamlik prinsipiga alohida e'tibor qaratilishi talab etiladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, uchrashuv, muloqotlar ham muntazamlik kasb etishi lozim.

Zero, san'atkorlar bilan uchrashuvlar, shuningdek, folklor qo'shiqlari va ularga jo'r bo'ladigan kuylar borasidagi turkumli suhbatlar o'quvchilarning san'at sohasidagi bilimlarini birmuncha kengaytiradi va tarbiya uchun ma'lum zamin yaratadi. Holbuki, maktab o'quvchilar bilan ish olib borishda bo'lgani kabi pedagogika umumiyligi o'rta ta'lim mакtablarining o'quvchilariga ham estetik tarbiya berishda tegishli tayyorgarlik ishlarini olib borishga to'g'ri keladi. Xalq san'atining mohiyati va ijtimoiy ahamiyati haqidagi suhbatlar va turkum ma'ruzalar ana shunday tayyorgarliklar vazifasini o'taydi.

O'quvchilar bilan o'tkaziladigan estetik tarbiya mazmunini belgilashda didaktikaning soddadan murakkabga prinsipi asosida ish ko'rildi. Unda mashg'ulotlarga jalb etilayotgan o'quvchilarning nechanchi kursda tahsil olishi, estetik bilimlari ko'lami, musiqiy savodxonlik darajalari e'tiborga olinadi.

Shu bois ham ashula va raqs darslariga, xalq musiqasi, qo'shiq san'atiga bag'ishlangan ma'ruza va suhbatlarga, fakultativ mashg'ulotlarga jalb etilgan o'quvchilarining estetik tarbiya sohasidagi dunyoqarashlarining shakllanganlik darajasiga qarab, ular bir necha guruhlarga bo'linadi. Aynan mana shu yondashuv har bir guruh imkoniyatlari va xususiyatlara qarab ish olib borish rejalarini tuzishga qulay metodik zamin yaratadi. Shu tariqa ish tutish tizimi asta-sekin estetik tarbiya ishining izchil dasturiga va ashula to'garagining taxminiy, so'ngra aniq ish shakliga, repertuar tuzishning izchil vositasiga aylanadi.

Tashkil etiladigan guruhlar ichida ashula va raqs guruhi bizning asosiy manbaimiz bo'lganligi uchun bu ansambl bilan ish olib borish davomida sinalgan xushovoz, iqtidorli, bilim doirasi yuqori, ijrochilik va kuylash malakasiga ega bo'lgan yoshlar hisobiga muntazam suratda to'ldirib borildi.

Biz havaskor yoshlarning ovoz imkoniyatlarini sinab ko'rish jarayonida, ko'pchilik havaskorlar uchun odat bo'lgan, ya'ni ijro etish uchun o'zining imkoniyatlariga mos bo'limgan, yirik xalq xofizlari va san'atkorlari ijro etgan murakkab asarlarni kuylashga urinishlarini, tabiiyki, bunda ularning qiynalishlari guvohi bo'ldik. Masalan, havaskor yoshlarning ko'pchiligi klassik ashulalardan «Munojot», «Ko'cha bog'i», «Yovvoyi tanovor», «Mustahzod», «Dilxiroj», «Qaro ko'zim», «Kim desun» kabi qo'shiqlarni, shuningdek, el orasida ma'lum vaqt ommaviy bo'lib turadigan yosh xonandalarning qo'shiqlarini ijro etishga urinadilar. O'z-o'zidan ravshanki, bu o'rinda to'ylarda aytildigan sho'x yallalarning ta'siri katta. Ko'pchilik ashula aytishga ishtiyoqmand yoshlar ashulalarning so'zlarini buzib ijro qiladilar, kuylardagi so'z to'xtalishlariga ahamiyat berishmaydi, usulga tushmaydilar. Bu esa ular bilan jiddiy va muntazam ravishda, chidam bilan ish olib borishni talab qiladi. Shu yo'sinda ayrim qo'shiqlarni o'quvchilarga o'rgatish va uni tinglovchilar e'tiboriga havola qilish oylab vaqtлага cho'ziladi. Ayniqsa, ko'pchilik bo'lib ansambl jo'rligida aytildigan qo'shiqlar ko'pchilikni, bir maqsad yo'lida birdek mehnat qilishni talab etishi rahbar mutaxassislarning bu ishga mas'uliyatini oshiradi.

Mashg'ulotlarda xalqimizning mashhur san'atkorlari, folklor qo'shiqlarining mohir ijrochi-bilimdonlari Halima Nosirova, Tamaraxonim, Muhiddin Qoriyoqubov, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Yunus Rajabiy, Komiljon Otaniyozov, Ma'murjon Uzoqov, Mulla To'ychi Toshmuhammedovlar haqida bir necha suhbatlar o'tkazdik. O'zbekiston san'atining rivojiga katta hissa qo'shgan Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodiga bag'ishlangan suhbatlar ham o'quvchilarda yaxshi taassurot qoldirdi. Ma'ruza va suhbatlar buyuk san'atkorlarning asarlarini, ijro etgan qo'shiqlarini iloji boricha namoyish qilish bilan birga olib borildi. Bunda turli yillarda chiqqan plastinkalar va magnitafon yozuvlaridan ham unumli foydalanildi. Shuningdek, o'quvchilarga mazkur san'atkorlar haqidagi kitoblar va maqolalarni o'qishi, teleko'rsatuvlar va radio eshittirishlarini diqqat bilan kuzatib borishlari doimiy nazoratda bo'ldi. Folklor

qo'shiqlari xazinasini o'zlarining juda ko'plab ijod namunalari bilan boyitgan Imomjon Ikromov, To'xtasin Jalilov, Muhammadjon Mirzayev, Nabijon Hasanov, Fahriddin Sodiqov, Komiljan Jabborov, Sayitjon Kalonov, Doni Zokirov kabi bastakorlar ijodi haqidagi qiziqarli ma'lumotlar va ular yaratgan qo'shiqlarning iqtidorli havaskorlar ijrosida kuylanishi o'quvchilarni san'atning qo'shiqchilik janriga va ularning yirik namoyandalari ijodiga qiziqishlarini oshirishda muhim omil vazifasini o'tadi.

O'zbek folklor qo'shiqlarining mohir ijrochilaridan bo'lgan Muhiddin Qoriyoqubov, Tamaraxonim 1923-yilda tuzilgan o'zbek etnografik truppasidagi hamnafaslari bilan o'sha yillardayoq respublikadan tashqarida ham shuhrat qozonganlar. Ular 1923-yilda Moskvadagi Xalq xo'jaligi yutuqlari ko'rgazmasida bir necha konsertlar bergan. Ular ijrosidagi o'zbek folklor qo'shiqlari, kuylari va raqslari tomoshabinlarda kuchli taassurot qoldirganligidan ularni qayta-qayta sahnaga taklif qilishadi. Mazkur truppaning 1925-yilda Parijda o'tgan Jahan xalqlari amaliy san'atining xalqaro ko'rgazmasida ishtirok etib bergan konsertlari juda katta muvaffaqiyat bilan o'tadi. Bu haqda Parijdagi ro'znomalarda qator maqolalar bosiladi. Bu truppa o'sha yili G'arbiy Yevropa bo'ylab gastrolga chiqadi va «Erk bolalari» degan musiqali pyesani namoyish etadi. Muhiddin Qoriyoqubov ijrosidagi xalq laparlari, termalari tomoshabinlarning olqishiga sazovor bo'ladi. Taniqli sozandalardan To'xtasin Jalilov, Usta Olim Komilov va boshqalar 30-yillarda Angliyaga safar qilib o'z san'atlari bilan u yerdagi san'at muxlislarini chuqur hayratga soladilar. Usta Olim Komilovning doirada ijro etgan usullaridagi xalqchil va mumtoz kuylar chet el matbuotida katta sarlavhalarda bosildi, unga Angliya qirolligining oltin medali berildi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nurmatov H. Musiqa va estetik madaniyat. Musiqa o'qituvchilari uchun metodik tavsiyalar. -T.: TDPI, 1992. -3 b.
2. Tursunov R. *G'amzasin sevding ko'ngil*. ....-T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. -49 b.
3. Dulgarova I. O'zbek folklor qo'shiqlari. -T.: O'zadabiy nashr, 1960. -82 b.